


O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni

2018 yil yanvar-mart

RAQAMLAR:


2018 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 1111,6 ming nafarni tashkil etdi

2018 yil yanvar-mart oylarida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 2904,0 ming nafarni tashkil etdi.




2018 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 1111,6 ming nafarni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48,3%ga ko'p. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 573,1 ming nafari (51,6%) erkaklar, 538,4 ming nafari esa (48,4%) ayollarni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-mart oylarida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 2904,0 ming nafarni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46,3%ga ko'p. Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 1706,5 ming nafari (58,7%) erkaklar, 1197,5 ming nafari esa (41,3 %) ayollarni tashkil etadi.




O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



■ 0-18 yosh ■ 19-30 yosh ■ 31-55 yosh ■ 56 yosh va undan katta

O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni


O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, foizda



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 3,2 ming nafari (33,4% erkaklar, 66,6% ayollar) o'qish maqsadida, 14,7 ming nafari (75,2% erkaklar, 24,8% ayollar) tijorat maqsadida, 14,6 ming nafari (39,5% erkaklar, 60,5% ayollar) davolanish maqsadida, 9,6 ming nafari (75,1% erkaklar, 24,9% ayollar) ishlash maqsadida, 23,1 ming nafari (23,8% erkaklar, 76,2% ayollar) doimiy yashash maqsadida, 11,9 ming nafari (84,6% erkaklar, 15,4% ayollar) xizmat yuzasidan, 46,7 ming nafari (53,8% erkaklar, 46,2% ayollar) sayyohlik maqsadida, 881,1 ming nafari (46,7% erkaklar, 53,3% ayollar) qarindoshlarni borib ko'rish maqsadida kelgan.


Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 115,7 ming nafari (56,2% erkaklar, 43,8% ayollar) doimiy yashash maqsadida, 8,8 ming nafari (46,0% erkaklar, 54,0% ayollar) davolanish maqsadida, 9,7 ming nafari (64,7% erkaklar, 35,3% ayollar) o'qish maqsadida, 85,7 ming nafari (53,1% erkaklar, 46,9% ayollar) sayyohlik maqsadida, 29,6 ming nafari (92,6% erkaklar, 7,4% ayollar) xizmat yuzasidan, 948,5 ming nafari (73,2% erkaklar, 26,8% ayollar) ishlash maqsadida, 1587,2 ming nafari (48,1% erkaklar, 51,9% ayollar) qarindoshlarni borib ko'rish maqsadida ketgan.

Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, foizda



O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni

2018 yil yanvar-mart oylarida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, kishi



2018 yil yanvar-mart bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki 79,2% (881,1 ming nafar) qarindoshlarni borib ko'rish uchun, 4,2% (46,7 ming nafar) sayyohlik maqsadida, 1,1% (11,9 ming nafar) xizmat yuzasidan, 0,9% (9,6 ming nafar) ishlash maqsadida, 5,1% (56,5 ming nafari) boshqa maqsadlarda tashrif buyurgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni, kishi

2018 yil yanvar-mart bo'yicha ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, ularning 54,7% (587,2 ming nafar) qarindoshlarni borib ko'rish uchun, 32,7% (948,5 ming nafar) ishlash maqsadida, 1,0% (29,6 ming nafar) xizmat yuzasidan, 3,0% (85,7 ming nafar) sayyohlik maqsadida, 3,7% (106,8 ming nafar) boshqa maqsadlarda ketgan.

